

**VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISH: JAHON
TAJRIBASI VA MILLIY YECHIMLAR**

Azizov Davron Abduganiyevich,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistraturasi,
Tashkiliy-taktik boshqaruv mutaxassisligi tinglovchisi*

E-mail: azizov-davron@inbox.ru

Mirzatillaev Umid Izzatillaevich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi, mustaqil izlanuvchi*

E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi sabab va omillari, mazkur masalada olimlarning yondashuvlari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasini tashkil etish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari, O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar faoliyati haqidagi mulohazalar, o'z ifodasini topgan. Shuningdek, mualliflar voyaga yetmagan jinoyatchiligini oldini olish va kamaytirish bo'yicha o'zining ilmiy-amaliy taklif va mulohazalarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, jinoyat sabablari, jinoyat omillari, maxsus o'quv kursi, inspektor-psixolog, jinoyat profilaktikasi, profilaktik suhbatlar, ichki ishlar organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

**ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ
НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ: МИРОВОЙ ОПЫТ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ
РЕШЕНИЯ**

Азизов Даврон Абдуганиевич,

*Магистр Академии МВД Республики Узбекистан
по специальности Организационно-тактическое управление*

E-mail: azizov-davron@inbox.ru

Мирзатиллаев Умид Иzzатиллаевич

*Ведущий научный сотрудник, самостоятельный исследователь
Институт криминологических исследований Республики Узбекистан*

E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

Аннотация: В статье отражены взгляды ученых на причины и факторы преступности несовершеннолетних, передовой опыт организации профилактики правонарушений несовершеннолетних в зарубежных странах, обсуждения о реформах в области профилактики правонарушений несовершеннолетних, деятельности инспекторов-психологов по делам несовершеннолетних в Республике Узбекистан. А также авторы выдвинули свои научно-практические предложения и замечания по профилактике и снижению преступности несовершеннолетних.

Ключевые слова: Преступность среди несовершеннолетних, причины преступности, криминальные факторы, курс специальной подготовки, инспектор-психолог, профилактика правонарушений, профилактические беседы, органы внутренних дел, правоохранительные органы.

ELIMINATING JUVENILE CRIME: GLOBAL EXPERIENCES AND NATIONAL SOLUTIONS

Azizov Davron Abduganievich

Master's degree student at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, specialty: Organizational and Tactical Management

E-mail: azizov-davron@inbox.ru

Mirzatillaev Umid Izatillaevich

Leading Researcher, Independent Researcher
Institute of Criminological Research of the Republic of Uzbekistan

E-mail: mirzatillaevumid7@gmail.com

Annotation: The article reflects the views of scientists on the causes and factors of juvenile delinquency, advanced experiences in organizing the prevention of juvenile delinquency in foreign countries, opinions on reforms in the field of juvenile delinquency prevention, activities of inspector-psychologists in the Republic of Uzbekistan. The author also put forward his scientific and practical proposals and comments on the prevention and reduction of juvenile delinquency.

Keywords: juvenile delinquency, causes of crime, factors of crime, special training course, inspector-psychologist, crime prevention, preventive conversations, internal affairs agencies, law enforcement agencies.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barqarorligi, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishi va huquqbuzarliklardan xoli hayot kechirishi bilan

chambarchas bog'liq. Afsuski, so'nggi yillarda voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. Bu holat nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki ta'lim muassasalari, mahallalar, fuqarolik jamiyati institutlari va ota-onalar hamkorligida bartaraf etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. **Mahatma Gandi** shunday degan edi: *"Kelajak avlodni o'zgartishni istasang, uning tarbiyasini o'zgartir"*. Bu ibora ham bizga yoshlar bilan ishlashda mas'uliyatni anglatadi.

Dunyoda sodir etilayotgan jinoyatlarning 30-40 % voyaga yetmaganlar hissasiga to'g'ri kelmoqda [1]. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib, har 45 soniyada 1 nafardan, kuniga 1909 nafar voyaga yetmaganlar hibsga olinayotganligi [2], Germaniyada 294 749 ta voyaga yetmagan shaxslar jinoyat ishlari bo'yicha gumon qilinuvchi tariqasida ishga jalb qilinganligi [3], Buyuk Britaniyada 59 mingta voyaga yetmaganlar qamoqqa olinganligi [4]. Markaziy va Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo mintaqalarida har yili 5000 nafar voyaga yetmaganlar jazoni ijro etish muassasasiga yuborilmoqda [5].

Respublikamizda 2024 yilda 3 364 nafar voyaga yetmaganlar 3 144 ta jinoyatga qo'l urgan bo'lib, ularning 2 870 tasi (91,3%) oldini olish mumkin bo'lgan va 274 tasi (8,7%) aniqlangan jinoyatlar hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 71 foizi (2 377 nafar) maktab o'quvchilar, 14 foizi (478 nafar) esa professional ta'lim o'quvchilar tomonidan sodir etilgan.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan 64 foiz jinoyatlarining 44 foizi o'g'rilik (1370), 8 foizi bezorilik (252), 5 foizi firibgarlik (144), 4 foizi talonchilik (113) va 3 foizi tan jarohati yetkazish (97) kabi jinoyatlar sodir etilganligini kuzatish mumkin [6].

Mazkur jinoyatlarning oshib ketishiga olib kelgan sabablardan eng avvalo ularning nazoratsiz va qarovsiz qolishining oqibatidir.

O'rganishlar natijasida, qancha erta voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va ularning g'ayriijtimoiy yo'lga qadam qo'yganini aniqlash, ularni oldini olish bu, davlatning jinoiy-huquqiy siyosati istiqbolida samarali bo'lishini kafolatlaydi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish borasida xalqaro hamda milliy qonunchilikda ularning huquqiy maqomi kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim.

Bolalar huquqbuzarliklarining oldini olishni tartibga soluvchi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarga, inson huquq va erkinliklariga doir asosiy xalqaro hujjatlar bilan bir qatorda, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (1989-yil 20-noyabr), Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga Qurolli mojaralarda ishtirok etuvchi bolalar

to'g'risida fakultativ Protokol (2000-yil 25-may), Bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasiga qarshi bola huquqlari bo'yicha Konvensiyasiga qo'shimcha Protokol (2000-yil 25-may), BMTning Ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir Qoidalar (1986-yil 21-may), shuningdek, BMTning Ar-Riyod (45/112 rezolyutsiyasi, 1990-yil 14-dekabr) ko'rsatmalari va boshqa hujjatlarni kiritish mumkin.

Mazkur xalqaro hujjatlarning aksariyati O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan hamda milliy qonunchiligimizni shakllantirishda ulardagi asosiy tamoyil va qoidalardan foydalanilgan bo'lib, ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlarni, "Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonni hamda "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorni belgilash lozim.

Professor I.Ismailov voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga quyidagi **sabab va omillarni** keltirib o'tgan:

voyaga yetmagan shaxslar bo'ylilik orttirishga bo'lgan qiziqishining yuqoriligi va o'quvchilar o'rtasida tabaqalanishning yuqoriligi o'g'irlik jinoyatlari sodir etilishiga imkon berayotganligi;

voyaga yetmagan shaxslar noqonuniy xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlarini bilmasligi va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda qiziqqonligi ular tomonidan tan jarohati yetkazish jinoyatlari sodir etilishiga shart-sharoit yaratayotganligi;

voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishiga ularning oilasidagi muhit va atrofidaqlarining xulq-atvori (oila a'zolari, mahalladoshlari, sinfdoshlari) asosiy ta'sir qiluvchi omil bo'layotganligi;

voyaga yetmaganlar tarbiyasiga Internetning ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri saqlanib qolayotganligi;

o'quvchilar va talabalarni darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish tizimi yetarli darajada nazoratga olinmaganligi;

farzandlarining tarbiyasi va ta'limida ayrim ota-onalar nazoratining yetarli emasligi va farzandlari uchun shart-sharoit yaratmaganligi kuzatilayotganligi;

maktablardagi dars sifati va davomat ustidan nazoratning pastligi o'quvchilar darslarga sababsiz qatnashmasligiga sharoit yaratayotganligi;

voyaga yetmaganlarning ta'lim tarbiyasi va ular tomonidan jamoat joylarida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga nisbatan mahalla yettiligi ta'sirining pastligi. Shuningdek, ta'lim – mahalla – oila o'rtasida yetarli aloqaning mavjud emasligi;

ota-onalar farzandlari ta'lim-tarbiyasiga mas'uliyatsizlik bilan yondashishi, ayrim ishlovchi ota-onalar uchun shart-sharoitning mavjud emasligi, farzandlarining bo'sh vaqtlarini nazorat qilmasligi;

tarbiya koloniyalarida tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlar bilan yetarli darajada tarbiyaviy tadbirlar olib borilmayotganligi sababli, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilayotganligi kuzatilayotganligi;

iqtisodiy qiynalgan va notinch oilalar muammolarining hal etilmasligi, ularning farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;

maktablarda psixolog yo'nalishida faoliyat olib borayotgan nomutaxassis psixologlar viloyatlar kesimida yuqori ekanligi, maktabdagi psixologik ishlarni yetarli darajada olib borilmasligiga olib kelayotganligi;

o'quvchilarda deviant xulq-atvorni kelib chiqishning asosiy sabablari o'quvchilarning ota-onasi bilan munosabati va oilaviy sharoitini yaxshi emasligida namoyon bo'layotganligi; *(Bu asosan noto'liq oilalarda tarbiya topayotgan bolalar va noto'liq oilada yuzaga kelayotgan ijtimoiy va moddiy vaziyatlar bilan izohlash o'rinli).*

Bundan tashqari, olimlardan D.J. Suyunova va M.A. Usmanovalar voyaga yetmaganlarning jinoyatchiga aylanib qolishiga quyidagi omillar sabab bo'lishini ta'kidlaydilar:

oila va turmushdagi salbiy ta'sirlar;

nosog'lom turmush tarzi;

yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish;

o'qimaydigan voyaga yetmagan shaxslarning uzoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaganligi;

katta yoshdagi jinoyatchilar tomonidan turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga voyaga yetmaganlarni jalb qilinishi;

zo'rlik ishlatishlar bilan bog'liq turli kitoblar, videofilmlarni tomosha qilish;

ruhiy holatdagi ayrim sifatlar;

ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri;

yaqin qarindoshlar tomonidan voyaga yetmaganga nisbatan e'tiborsizlik bilan qarash;

ota-onaning voyaga yetmagan farzandiga noto'g'ri tarbiya berishi;

maktabda o'quv jarayonida voyaga yetmaganlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning paydo bo'lishi;

voyaga yetmagan qizlarning yoshi katta qizlar bilan tungi vaqtda ko'chalarga chiqishlari va h.k [7].

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ular bilan ishlash bo'yicha qator **xorijiy mamlakatlarda** juda samarali va **innovatsion tajribalar** shakllangan:

Yaponiya: Oila markazli profilaktika.

Yaponiyada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda oilaga katta e'tibor qaratiladi. Agar bola birinchi marta qonunbuzarlik qilsa, u politsiyaga emas, oilasini jalb etgan holda maxsus markazga yuboriladi. Bolalar va ota-onalar uchun mahsus tarbiya dasturlari mavjud. Maktablarda intizomni oshirishga qaratilgan faol tarbiyaviy faoliyat olib boriladi.

Buyuk Britaniya: "Youth Offending Teams" (YOTs).

Britaniyada har bir mahalliy hokimiyat huzurida Yoshlar Huquqbuzarligi guruhleri (YOTs) tashkil etilgan. Bu guruhlarda psixologlar, politsiya, maktab va ijtimoiy xodimlar birgalikda ish olib borishadi. Voyaga yetmaganlar bilan manzilli, muloqotga asoslangan profilaktika ishlari olib boriladi. Har bir huquqbuzar yosh shaxs uchun individual reja ishlab chiqiladi va uning ijrosi nazorat qilinadi.

Fransiya: Ta'lim va kasbiy yo'nalishga burilish.

Fransiyada jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga kasb o'rgatish markazlari orqali jamiyatga qaytish imkoniyati yaratiladi. "Qayta ijtimoiylashuv markazlari" da yoshlarga ta'lim, kasbiy malaka, ijtimoiy ko'nikmalar va maslahatlar beriladi. Sudlar ko'pincha jazo o'rniga ta'limiy choralarni qo'llaydi.

Yangi Zelandiya: "Family Group Conference".

Yangi Zelandiyada huquqbuzarlik holatida avvalo oilaviy yig'ilish o'tkaziladi. Bu yig'ilishda yosh shaxs, uning oila a'zolari, jabrlanuvchi va huquq organi vakillari ishtirok etadi. Bu usul orqali jinoyatning oqibati muhokama qilinadi va yosh shaxsning qilmishiga munosabat shakllantiriladi. Odatda bu konferensiya jarima, ijtimoiy ishlar yoki maslahatlashuv kabi choralar bilan yakunlanadi.

Singapur: Qat'iy intizom va oilaviy nazorat.

Singapurda voyaga yetmaganlar jinoyatchilikni bartaraf etishda qat'iy qonunlar va profilaktik tadbirlar katta rol o'ynaydi. Bolalarning maktabga qatnashi, intizomi va oilaviy muhit doimiy nazoratda. Jinoyat sodir etgan yoshlarga "isloh etish maktablari" da tarbiya va nazorat asosida qayta tarbiya beriladi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-mart kunidagi tegishli ("Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida") qaroriga asosan, Milliy Gvardiyaining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar lavozimlari Ichki ishlar vazirligi tuzilmasiga o'tkazildi.

Qarorda voyaga yetmaganlar bilan "Oila-mahalla-maktab" tamoyili asosida

manzilli ishlash, voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish bo'yicha idoralararo ishlash tizimini yo'lga qo'yish hamda mazkur holatlarga sabab bo'layotgan asl omillarini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish mexanizmlarini joriy etilishi belgilangan.

Bu borada voyaga yetmaganlar manfaatlari muhofazasini samarali tashkil etishda huquqiy tarbiya va oilani mustahkamlashning huquqiy muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, mustahkam oila fuqarolik jamiyatning eng muhim asoslaridan biri bo'lib, voyaga yetmaganlar shaxs sifatida kamol topadigan ijtimoiy muhitdir. Bu yo'nalishdagi barcha aloqador soha mutaxassisleri – pedagoglar, shifokorlar, psixologlar, huquqshunoslar va boshqa idora vakillari faoliyatini shu maqsadga yo'naltirish dolzarb hisoblanadi.

Inspektor-psixologlarni asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanmoqda:

- voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish;
- ta'lim muassasalari psixologlari bilan hamkorlikda voyaga yetmaganlarda qonunbuzilishlarga murosasiz bo'lish hissini shakllantirish;
- muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash;
- umumiy o'rta ta'lim maktabida ichki nazoratida o'quvchilar bilan tizimli ishlash hamda ushbu o'quvchilarni ichki nazoratdan chiqarish;
- ta'lim muassasalari psixologlari bilan hamkorlikda o'quvchilar o'rtasida suitsid holatlariga moyillikni barvaqt aniqlash, ushbu holatning kelib chiqish sabablarini o'rganish hamda suitsid holatlariga moyil o'quvchilar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borish;
- o'quvchilar xulq-atvoridagi salbiy holatlarning oldini olish, ruhiy zarba, nizo, salbiy emotsional kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish;
- voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarlik, g'ayriijtimoiy xatti-harakat sodir etilishining oldini olish, bunga sabab bo'lgan sabablar va sharoitlarni aniqlash;
- voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash;
- darslarga sababsiz muntazam ravishda qatnashmayotgan voyaga yetmaganlarni, aniqlash, darslarga qatnashmaslik sabablarini o'rganish, voyaga yetmaganning ta'lim olishga to'sqinlik qilayotgan omillarni mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda bartaraf etish choralari ko'rish.

Inspektor-psixologlar maktablarda psixologik muhitni yaxshilash va o'quvchilar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish hamda muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlarni olib bormoqdalar.

Yuqoridagilardan kelib, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

inspektor-psixologlar hamda maktablardagi psixolog xodimlar o'zaro hamkorlikda huquqbuzarlik sodir etishga moyil hamda deviant xulq-atvorga ega bo'lgan maktab o'quvchilari bilan zamonaviy yondashuvlar asosida ularning **“psixologik portreti”**ni yaratish orqali xarakteri, psixologik faolligi va emotsionalligi hamda boshqa o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, yakka tartibda ishlash amaliyotini yo'lga qo'yish;

2025–2026-o'quv yilidan boshlab, bevosita voyaga yetmaganlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan inspektor-psixolog lavozimiga nomzodlarni har tomonlama yetuk, oliy yuridik ma'lumotga ega hamda psixologiya-pedagogika sohasida zarur bilimlarga ega xodimlar bilan jamlash maqsadida IIV Akademiyasining **“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash”** yo'nalishiga qabul kvotalari sonini mavjud ehtiyojdan kelib chiqqan holda oshirish;

voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi, Bolalar ombudsmani, Milliy gvardiya, mahalliy hokimlik organi o'zaro hamkorlikda ota-onalar va farzandlar o'rtasida jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan eksperimental tadqiqotlarni olib borish, bunda:

bolalar madaniyatini oshirish maqsadida tarbiyasi og'ir, muayyan psixologik muammolari mavjud, deviant xulq-atvorga ega, ota-onasi chet elda bo'lgan qarovsiz voyaga yetmaganlar o'rtasida turli xil psixometodologik usullardan foydalanib, seminar-treninglar o'tkazish;

alohida toifadagi voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shug'ullanishda tegishli mutaxassislarning yoki IIO xodimlarining bolalar uchun sevimli bo'lgan kino, multfilm va ertak kaxramonlari qiyofasida (obraz) huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishning salbiy oqibatlarini to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishlarini yo'lga qo'yish;

Mazkur amaliyot Yaponiyada keng qo'llanilib, bolalar bilan muloqot davomida ularga psixologik jarohat yetkazilishi yoki bosim o'tkazilishining oldi olinadi.

Ota-onalar tomonidan farzandlariga ularning o'ziga xos xususiyatlari, fe'l-atvoridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya berish borasida tajribalari orttirish maqsadida mahalliy hokimliklar huzurida **“Mustahkam oila – mukammal tarbiya”** markazlarini sinov tariqasida tashkil etish.

Mazkur markazlar tegishli hududdagi notinch, ajrim yoqasidagi, farzand tarbiyasini samarali tashkil etmagan oilalarning reyestrini yuritib, ular bilan har oy davomida tajribali psixolog, pedagog, yuristlar, shaxsiy va ish faoliyatida katta yutuqlarga erishgan taniqli shaxslardan iborat jamoa ota-onalar bilan individual

ishlaydi, treninglar, turli xil tadbirlar o'tkazish orqali ota-onalarga o'z farzandlariga tarbiya berish bo'yicha zarur bilimlar va ko'nikmalarni shakllantiradilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'tgan yillar davomida mamlakatimizda ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish maqsadida bir qator qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilindi hamda ushbu sohadagi qonunchilik muayyan darajada tizimlashtirildi. Bu esa, o'z-o'zidan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini samarali huquqiy tartibga solishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR / ЧОККИ / REFERENCES:

1. www.un.org
2. <https://www.childrensdefense.org/policy/policy-priorities/youth-justice>
3. <https://de.statista.com/statistik/daten/studie/1243155/umfrage/straftatverdaechtige-kinder-und-jugendliche-in-deutschland>
4. https://assets.publishing.service.gov.uk/media/65b391a60c75e30012d800fa/Youth_Justice_Statistics_2022-23.pdf
5. <https://news.un.org/ru/story/2020/02/1373191>
6. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Хукукий статистика ва тезкор-хисоб маълумотлар марказининг 2024 йил IV чорак якуни бўйича маълумоти. (Information of the Center for Legal Statistics and Operational Data of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan for the 4st quarter of 2024).
7. Д.Ж. Суюнова ва М.А. Усманова Вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятларни профилактика қилишнинг ҳудудий методикаси. Илмий-амалий тавсиялар. –Т., 2019. 17-бет. (D.J. Suyunova and M.A. Usmanova Regional methodology for the prevention of juvenile delinquency. Scientific and practical recommendations. –Т., 2019. p.17.)